

— Men darsdan bo'sh vaqtlarimda bu gazetani maroq bilan o'qiymen. Unga kelasi yil uchun ham, albatta obuna bo'lmoqchiman, — deydi Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi 301-maktabning 2-sinf o'quvchisi Hasan Veliyev

O'ZBEKİSTON  
RESPUBLİKASI  
MƏDƏNİYƏT VƏ İRSƏT MƏKALƏLƏRİ  
MƏDƏNİYƏT MƏKALƏLƏRİ



*Tong*

# YULDUZI

Vatan yagonadir, vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2007-yil  
10 – 16-sentabr  
N:37  
(66630)

**DUSHANBADAN**

**PREZIDENT SOVG'ASI**  
Xo'jaylidagi 1-«Mehribonlik uyi»-ning 30 nafar o'g'il-qizlari Prezidentimiz Islom Karimov sovg'alarini oldilar. Ayni paytda «Mehribonlik uyi»dagi ta'limni tugatib, kasb-hunar kollejlari hamda o'quv yurtlariga yo'l olgan bolalarga ham sovg'alar berish unutilmadi.

Shuningdek, 1-sinf o'quvchilari va bitiruvchilarning har biriga 50 ming so'm mablag' bo'lgan bank daftarchalari ham topshirildi.

**SPORT INSHOOTLARI BOLALAR UCHUN**  
Navoiy viloyatida ushbu yilning olti oyi davomida 10 ta bolalar sporti inshooti qurilishi nihoyasiga yetdi. Endi bolalar sport zallarida mazza qilib sport mashq'ulotlarini o'tadigan bo'ldi.

**DARBANDLIKLER QUVONCHI**  
Boysun tumani, Darband qishlog'idagi katta-yu kichikning quvonchi cheksiz. Chunki bu yerda ta'lim maktab bunyod etilib, bolajonlar barcha shart-sharoitlari muhayyo bo'lgan o'quv maskanida faqat a'lo o'qishlari shart.


**Mahallada kollej qurildi**  
Qumg'o'rg'on tumanidagi «Arpapoya» mahallasida esa 720 o'rinali kasb-hunar kolleji qad rostladi. Yorug' va ko'rkar o'quv xonalari-yu sport zalida o'quvchilar uchun barcha qulayliklar yaratildi.

Xabarlar respublika matbuoti materiallari asosida tayyorlandi

**DUSHANBAGACHA**

*Bu yil jonajon mamlakatimizning 485 ming nafar aziz bolakaylari 1-sinfga qadam qo'yishdi. Ularning barchasiga Prezident sovg'alari berildi. Vatanga, elga munosib farzand bo'ling, aziz kichkintoylar!*

— Yurtboshimiz bergen sovg'ani juda ehtiyyotlab tutaman, — deydi poytaxtdagi 322-maktabning 1-sinf o'quvchisi Xumora Muhammadjonova.



Kuni kecha Shayxontohur tumanidagi 84-bog'cha-maktabda ham birinchi qo'ng'iroy ovozi yangradi. O'quvchilarni bog'cha-maktab mudirasi Aziza opa Bo'riboyeva yangi o'quv yili bilan qutladilar. Davlatimiz madhiyasi ostida bayroq ko'tarilgach, birinchi sinf o'quvchilarini va ottonalar sinflarga taklif etildilar. Chiroyli bezatilgan sinf xonalarda birinchi sinf o'quvchilariga Prezident sovg'asi – o'quv qurollari solingen portellar taqdim etildi.

Fursatdan foydalanib, 1-«A» sinf o'quvchilarining maktab haqidagi taassurotlari bilan o'rtoqlashdik:

# 1 SINFGA MARTA

## ENDI KATTA QIZMAN

Robiya MIRZAXO'JAYEVA:


– Men maktabga ketayotgan o'quvchilarni ko'rsam, qachon katta bo'laman, men ham maktabga borardim, – deb o'ylardim. Oyijonim bu yil maktabga borasan, deganlarida endi katta qiz bo'lib qolganimni tushundim. Maktabga kelish menga juda yoqdi.



## «ERTA TURGAN – BOY BO'LAR»

Akbar HASANOV:

– Buvijonim doim erta turgan boy bo'ladi, bolam, saharlab uyg'ongan kishining rizqi butun bo'ladi, – derdilar. Men ham endi har kuni erta turaman, chunki maktabga kechikib kelish mumkin emas.



## «A» SINF – A'LOCHI

Taxmina AKROMOVA:

– Men 1-«A» sinfda o'qiyotganidan juda xursandman, chunki «A» sinf doimo a'lochi sinf bo'lgan-da. Men ham sinfimizning a'lochi o'quvchilarini qatoridan joy olmoqchiman.



## O'QUVCHINING ODOBI

Rustambek MIRAKMALOV:

– Ustozimiz Dilrabo opa Saxyeva bizga maktabda o'zimizni qanday tutishimiz, tozalikka, ust-boshimizni kir qilmaslikka alohida e'tibor berishimizni tayinladilar. Kattalarga birinchi bo'lib salom berish, ularga yo'l berishimiz kerakligi, qo'ying-chi, o'quvchining odobi haqida hamma qoidalarni tushuntirdilar. Katta sinflarni bizga namuna qilib ko'rsatdilar.



Maktabimizda o'quvchining odobi alohida e'tiborga olinarkan.

## Yulduzxonga xat keldi



### «QO'RQITUVCHI KUNDALIK

**Ota:** – Qani, o'g'lim, kundaligingni olib kel-chi, bir tekshirib qo'yay.

**O'g'il:** – Bilasizmi, dadajon, men uni ota-onasini qo'rqtish uchun Karimga berib turgandim.

**Azimjon QIRG'IZALIYEV, Farg'ona viloyati, Farg'ona tumanidagi 44-umumi o'rta ta'lim maktab o'quvchisi**

Agar rasm chizishni tugatgan bo'lsangiz, daftarlarni yig'ib olaman, – o'qituvchi shunday deya rasm daftarlarni yig'a boshladi. Shunda birdan Ravshan o'rnidan sapchib turib:

– Ustoz, mening daftaramni eng ustiga qo'ying, tuxum rasmini chizgandim, sinib qolmasin, – debdi.

**Oybek QAHRAMON o'g'li, Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 27-umumi o'rta ta'lim maktab o'quvchisi**

## BUGUN TALABAMAN!

Maktabga yo'l olayotgan ukajon-u singillarimni ko'rib, ko'nglim allanechuk bo'lib ketdi. Nega, deysizmi? Chunki o'tgan yili men ham xuddi shu kuni maktab formalarimni kiyib, ustozimizga atalgan bir quchoq gul bilan ilm dargohiga yo'lolgandim.

Bugun esa Angren shahridagi Pedagogika kolleji talabasiman. Mustaqillik bilan teng-dosh ekanimdan bag'oyat xursandman. Ilmiga chanqoq, intiluvchan yoshlari qatorida ekanligimdan juda baxtiyorman. Bo'sh vaqtlarimda gazeta va jurnallar o'qish bilan birga badiiy va she'riy kitoblarni ham mutolaq qilib turaman. Chunki kelgusida ona Vatanimizga bilimli yoshlari kerak-da. Kelajakda Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori bo'lish niyatim bor. So'zimning oxirida shuni aytmoqchimanki, barcha o'quvchilar maktabning, ustozlarining qadrlariga yetishsin. Chunki keyinchalik uning qadri juda bilinadi. Maktabni bitirganimga uncha ko'p bo'Imagan bo'lsa-da, uni darrov sog'inib qoldim.

**Muazzam AHMEDOVA, Toshkent viloyati, O'rtachirchiq tumani**



## MAKTAB – BILIM BULOG'

Mana, yangi o'quv yili ham boshlandi. O'quvchilarini, ularning shovqin-suronini sog'inib qolgan maktab quchog'i yana ularni o'z bag'riga oldi.

Fursatdan foydalanib, barcha o'quvchilarga yangi o'quv yilida yangi zafarlar, omadlar tilab qolaman. Yaxshi niyat bilañ boshlagan yangi o'quv yilingiz xayrli bo'lsin!

**Nazokat RAHMONOVA, Buxoro viloyati, Kogon tumani**

## USTOZLARGA ATALGAN GULLAR

Kamola juda orasta qiz. Darslardan, uy yumushlaridan bo'shadi deguncha, qo'liga igna, ip olib qo'g'irchoqlarigami, singlisi Zaynabxonami chiroyli munchoqli ko'ylaklar tikadi. Pazandachilikda-ku, unga teng keladigani yo'q. Oyijonisi Barno opaning ortidan qolmaydi. Palov, somsa, manti kabi tansiq taomlar uning yordamisiz unchalik mazali bo'lmaydi. «Ona qizim, chaqqon qizim», deya uni erkelaydigan dadasi Umarjon aka tomorqasidan qizi uchun alohida yer ajratib, turli xildagi hushbo'y gullardan bog' yaratgan. Bog'dagi gullarni Kamolaning o'zi parvarishlaydi. Kimning tug'ilgan kuni bo'lsa, gullaridan katta guldasta yasab, sovg'a qiladi.

Yangi o'quv yilida ustozlariga ham bog'idagi gullardan kattakon guldaста yasab olib bordi. Kamola ulg'aygach, chevar bo'lishni orzulaydi. Tikkan ko'ylagini kiyganlar uni qo'ling dard ko'rmasin, deya duo qilishsa bo'lgani.

**Nodira TURG'UNOVA, Chilonzor maishiy xizmat kasb-hunar kolleji talabasi**



Dilfuzani salkam 20 yildan beri bilaman. O'zida samimiyat ufurib turgan bu muallima «Yil o'qituvchisi – 2000» ko'rlik-tanlovining respublika bosqichida g'olib bo'ldi.

– Hayotimni bolalar bilan bog'ladim, – deydi Dilfuza. – Ular ko'zidagi hayratni tuyub yashash men uchun topilmas quvonch va baxtga aylandi.

Dilfuzani yaxshi bilganlar bu gapida

z a r r a  
m u b o l a g ' a  
y o ' q l i g i n i  
sezadilar.

D i l f u z a  
shunchaki dars  
o ' t m a y d i ,  
s h u n c h a k i  
so ' zlamaydi.  
Har bir darsiga  
p u x t a  
tayyorlanadi,  
a m a l i y o t g a  
k e l g a n  
talabalarni ham  
o'quychilari bilan  
bahsga chorlaydi.

«O'tkan kunlar», «Bemor», «Muzqaymoq», «Kecha va kunduz» haqida yurakdan to'lqinlanib so'zlaydi, siz esa unga maftun bo'lib, so'z sehridan lol qolasiz. U ruboiy, g'azal o'qiganda yoqimli kuy tinglagandek huzur qilasiz. Ajoyib notiq olib borgan davralar, avgust kengashlari-yu respublika anjumanlari fayzi o'zgacha. Ayniqsa, Dilfuza kitobxonlik borasida kyunib gapirganda, ayrimlar «ari chaqqandek» qimirlab qolishadi.

– Hech esimdan chiqmaydi, – deb xotirlaydi Dilfuza. – 1970-yillarda usto-

## USTA VA CHARXPALAK

Davomi. Boshi  
o'tgan sonlarda.

### (Ertak-qissa)

Ularning gap-so'zlaridan odamlarga keragi bo'lmay, bir chekkada chang bosib yotaverish judayam jonlariga tekkanini fahmlab olish qiyin emasdi. Ha, haqiqatan ham hayotda doimiy harakatdagi narsalargina yashashga qobil ekan. Qanchalik sir bo'Imasin, aytib qo'yishga majburman. Fikr ham shunday ekan. Qanchalik ishga solinsa, fikr qatlamlari shunchalik ochilib boraverar ekan. Mo'jizalarga to'la dunyodan hayratga tushaverar ekan. Hayratga tushgani sayin yana yuksalaverar ekan, shunaqa ekan.

Narvonning eng katta moyasi to'ng'ich Hasan miq etmadidi.

Bo'lib o'tgan voqeal-hodisalar unda juda og'i taassurot qoldirgandi.

U shu sababli o'z o'y-xayollar bilan band edi.

zimiz Muhayyo opa ochiq dars o'tdilar. Hammamiz bahs-munozaraga kirishib, «Farhod va Shirin» dostonini muhokama qilganmiz. Kimdir Xisravn, kimdir Farhodni oqlagan, xullas, darslikdagi fikrlarga mos kelmaydigan gaplarni ham aytganmiz. Dars tahlili boshlanganda, eshik ortida turib boshqa o'qituvchilarining fikrlarini eshitib, «muzlab» ketganmiz.

«N e g a

## KITOB HIDIGA XUMORMAN

*Bo'rsildoq tandir non, gurkirab bo'y taratayotgan rayhon, beg'ubor go'dak nasibasi bo'lmish ona suti, beshikdagi chillasi chiqmagan chaqaloq hididan yoqimli va muattar is bor ekan-da, deysizmi? Ha, bor. Bu – kitob isi. Yangi nashrdan chiqqan kitob shaydosi, uning hididan orom oluvchi ustozlardan biri, uning hidiga xumor Yunusobod tumanidagi 70-umumiyl o'rta ta'lim maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi Dilfuza G'ANIYEVAdir.*

o'quvchilaringizga erk berasiz, hamma gapni aytaveradimi, nega darslikdagi gaplardan chetga chiqishadi?» deb darsni past baholashgan. Muhayyo opa yig'lab chiqib ketganlar. «Biz endi darslikda yozilganini aytal qolaylik», deganimizda, sir boy bermay, «Yo'q, to'qishdek bir gapni takrorlamang, o'z fikringiz bo'lsin», deganlar.

Bundan 10-15 kun avval «Bodomzor» bekatida 11-12 yoshli uch-to'rt nafar o'quvchilarini uchratib qoldim. E'tiborimni tortgan tomoni, bolalar qo'lida 2-3 tadan kitob bor edi. Ta'til kuni bo'lsa-da, kitob ko'tarib yurgan bolalar bilan suhbatlashgim keldi.

O'zini Hilola deb tanishtirgan tetikkina qizcha sentabrdagi birinchi darsdayoq ustozi o'qigan kitoblari haqida so'rashini, har bir o'quvchi kamida 4-5 ta kitob o'qishi shartligini aytib, «Kitob hidini bilasizmi, hidlab ko'ring», dedi.

– Bo'imasam-chi, bo'yoq hidi anqib turgan gazeta, kitobga men ham tashnaman. Ustozing Dilfuza G'aniyeva bo'lsa kerak-a? – dedim.

nufuzli universitet va institutlarda o'qish sharafiga muyassar bo'lishdi. Ana shunday shogirdlaridan biri, hozirgi kunda O'ZJTU talabasi To'maris Xudoyberdiyeva ustozi haqida to'lqinlanib, shunday deydi: – Dilfuza opaning dovrug'ini eshitib, 11-sinfda adabiyot darslariga boshqa maktabdan kelib qatnashdim. Bu darslarimiz go'zal, oxorli edi. Biz uchun mavzu katta-kichikligining ahamiyati yo'q edi. Bizularning ichida yashardik. To'maris va Barchinoy, Dilorom va Bahromshoh, Kumushbibi va Otabekning o'tli nafasini his qillardik. Dilfuza opam bizni olib kirgan adabiyot bo'stoni hayratlar, uchqur xayollar, rangin mo'jizalardan iborat edi. Dilfuza

ning har bir o'quvchisidan bu kabi iliq fikrlarni eshitishingiz mumkin. U o'quvchilariga nasihat qilmaydi, ular bilan yaqin do'stdek dildan suhbatlashadi. Balki shundandir, 20 yillik sobiq o'quvchilar ham uni yo'qlab turishadi. Aslida u shunga yarasha hurmat qozongan, ular qalbidan chuqur joy olgan.

Izlanuvchan, ijodkor o'qituvchi, Xalq ta'limi a'lochisi Dilfuza haqida gap tugamaydi. Birini aytasangiz, biri qolib ketadi. Yaxshisi, u haqda siz aziz bolajonlar ham ustozlaringizdan so'rang, aminmizki, ustozlaringiz Dilfuza opangizni tanishadi va u haqda faxr bilan so'zlab berishadi.

Mahmuda VALIYEVA

Shoyim BO'TAYEV

– Bundan bizga nima naf?  
– Qismatimizda shunday bitilgan. Bu bizning vazifamiz.

– Anavi Ayiq odamgayam xizmat qilgandik.  
– U jazosini tortib ketdi.  
– Baribiram-da.  
– Baribir emas, biz yuksaklikka qarichma-qarich, poyama-poya intilaverishimiz kerak. Aslida, gap yuksaklikda ham emas.

– Gap nimada bo'lmasa?  
– Yuksaklikni zabt etish yo'lida. Shu yo'ldagi qiyinchiliklarda. Bu yo'llarni hamma bosib o'tishi kerak.

– Tushunarli.  
To'ng'ich Hasan ko'nglidagi barcha gaplarni, o'ylagan fikrlarini to'liq yetkazish uchun nimadir yetishmayotganini his etdi.

U gapni boshqa yoqqa burdi.  
– Bir mahallar, hali Husanlardan ajramagan vaqtlarimizda quduqqa tushgan edik, – dedi.

O'rtancha Hasan-Husanning Hasani bu voqeani eslolmadi.

– Ha, esladik, – deyishdi boshqa moyalar. – Quduqning tubidan guvillagan ovoz chiqib turgandi.

– Quduqning o'sha guvillagan ovoz chiqayotgan eng tubida men turgan edim.  
– Hasan odatdagidek tepada edi.

(Davomi bor.)

# HAR BIR BOLA HAQLI

Kuni kecha respublikamizdagi 9773 ta umumiy o'rta ta'lif maktablari birinchi qo'ng'irotqning jarangdor ovozi jo'rligida 5 milljondan ziyod o'g'il-qizni yana o'z bag'riga chorladi. Qo'shaloq bayramlar shukuhi kezib yurgan kunlarda an'anaga ko'ra maktablarni kezdik.



Surxondaryo viloyatidagi 2-umumiy o'rta ta'lif maktabi Denov tumanining eng ko'rkam, bahavo go'shasida joylashgan. Bilim maskanining shinamgina hovlisiga yig'ilgan 998 nafar o'quvchini mifik rahbari Jumanazar aka Nazarov boshchiligidagi 60 dan ziyod o'qituvchilar jamoasi iliq qarshi oldilar. Yangi o'quv yilini kapital ta'mirdan chiqarilgan mifik binosida boshlagan, Mustaqillik darsini esa keng va shinam sinf xonalarida o'tgan o'quvchilar quvonchini bir ko'rsangiz edi!

Bu mifik o'quvchilariga tumandagi ko'plab tengdoshlari havas bilan qarashadi. Chunki ustozlar borasida ularning omadi chopgan. Oliy toifali o'qituvchi B.Ergashev, X. Alimardonov, tarix o'qituvchisi X.Choriyeva, Q.Eshnazarovlar nafaqat bolalarga, balki O.Kalonova, B.Alixonov, M. Isroilova, I. Toshboyev, M.Sharipova singari o'qituvchilarga ham ustozlik qilib kelishyapti.

Bu mifik o'quvchilarining keyin bekorchilikdan zerikib yurishganini ko'rmaysiz. Chunki to'garak ishlari yaxshi yo'lda qo'yilgan. T.Toshboyev, M.Olimova, S.Sheraliyevlar boshchilik qilayotgan sport, raqs kabi to'garaklar doimo ular bilan gavjum. Mifik qoshni bo'lgan 17- hamda 18-, 69-umumiy o'rta ta'lif maktablari o'quvchilari bilan turli sohalarda musobaqlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

– Bilim dargohimizdagi sharoitlar juda yaxshi, – deya so'z boshladi mifik ruhshunosi O'g'iloy Kalonova. – Lekin o'quvchilarimizning birligina orzusi bor: kompyuterlar xonasi bo'lsa, o'quvchilarimiz zamon talabiga mos texnik vositalar yordamida bilim olishsa, qaniydi. Ertalabdan kechgacha yonmaydigan elektr chiroqlari 1-2 soat bo'lsa-da, yonib tursaydi...

## TAHRIRIYATDAN:

Ustozning kuyunchaklik bilan aytgan fikrlariga biz ham qo'shilamiz. Zero, g'amxo'rliklar, qulayliklar, shart-sharoitlardan foydalanishga yurtimizning har bir o'g'il-qizi haqlı!

ZAMONBEKA



**YANGI MAKTAB STADIONIDA FUTBOL  
O'YNASH GASHTIGA NIMA YETSIN??**

## «RASSOM BO'LAMAN», DEYDI

Tengdoshingiz Azizbek Hamidov Uchtepa tumanidagi 4- umumiy o'rta ta'lif mifikabining 8-«B» sinf o'quvchisi. U poytaxtimizda joylashgan yosh Ijodkorlar uyi qoshidagi rassomchilik to'garagida tahsil oladi, xalq amaliy san'atining rassomchilik yo'lini tanlab olgan. Naqqoshlik, rasm chizish bilan birgalikda o'zi sevgan miniatyura san'atiga ham zavqi baland.

Uning «Bobur xayol surganda», «Alisher Navoiy she'rxonlikda», «Tohir va Zuhra», «Boburnomada fil jangi» kabi miniatyura asarlari tafsinga loyiq.

Miniatyura yaratish juda murakkab jarayon hisoblanadi. Shunga qaramay, Azizbek ushbu amaliy san'at turini tanladi.

Garchi xalqaro ko'rik-tanlovlarida ishtirok etmagan bo'lsa-da, yurtimizda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda o'z asarlarini namoyish etishga ulgurdi. Mifik tabda a'lo baholarga o'qish bilan birgalikda, rus, turk, ingлиз tillarini mukammal biladi hamda sportning karate turi bilan shug'ullanadi.

– Azizbek juda tirishqoq bola! Boshlagan ishini albatta oxiriga yetkazmay qo'ymaydi.

Yaqinda o'tkaziladigan «Yangi avlod – 2007» ko'rik-tanloviga Azizbek o'zi yaratgan miniatyura asarlarni taqdim etib, tanlov g'olib bo'lishiga ishonamiz, – deydi ustoz Sodiq aka.

Biz ham Azizbekning sharq Rafaeli – Kamoliddin Behzod kabi buyuk rassom bo'lishiga tilakdoshmiz.

**Jamshid NABIYEV,  
O'zMU jurnalistika fakultetining  
2-bosqich talabasi**

## MEHROJ – MEHRIBON BOLA

Kun peshindan oqqan edi.

Ishga shoshib kelayotgandim, ro'paramda 13 yoshli bir bolakay 16 yoshlar chamasidagi ko'zi ojiz opasini yetaklab borayotganini ko'riboldim. Indamasdan o'tib ketgim kelmadi.

– Qayerga ketyapsizlar? – so'radim ulardan sekgingina.

– Gazeta tahririyatiga, – javob qildi bola qo'li bilan peshonasidagi termi artib. – Bular mening xolamning qizi – Dildora opam bo'ladilar, shoira bo'laman, deb har kuni o'nlab she'rlar yozadilar!

– Isming nima?

– Mehroj, futbolchi bo'lgim keladi. Bugun o'rtoqlarim mahallalararo futbol musobaqasida ishtirok etishadi. Futbolda qolay dedim-u, ammo opamni yolg'izlatib qo'yigim kelmaydi-da. Ta'tildagi ko'p vaqtimni ko'zi ojiz opalarim – Dildora va Zilolaga, xolam Gulchehraxonlarga sarflayapman. Ular meni har kuni zo'r futbolchi bo'lgin, – deb duo qilishadi.


Aziz bolajonlar! Mehroj ham Sizning tengdoshingiz. U Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 31-mifikabining 7-sinf o'quvchisi.

Samarqand shahridagi 59- ko'zi ojizlar mifik-internatini tamomlayotgan Dildora opasini hammadan ham yaxshi ko'radi.

Zilola opasining eskirib ketgan, qo'lidan bir zum qo'yaydigan dutorini ta'mirlab ham berdi.

Opasini yetaklab ketishga chog'lanayotgan Mehrojni kuzatar ekanman, qulog'im ostida dilimni mehr-oqibatga chorlovchi Gulchehra opaning chalayotgan mungli bir kuyini eshitgandek bo'ldim.

**Ma'mura MADRAHIMOVA**



«Pekin-2008»

## YOZGI OLIMPIADA QAYERDA O'TADI?

Bolalar, 2008-yilgi yozgi Olimpiada o'yinlari qachon va qayerda o'tishini bilasizmi?

Ha, har 4 yilda bir marotaba o'tkaziladigan Olimpiadaning bu yilgi manzili Xitoy poytaxti Pekin shahrida bo'lib o'tadi. 2008-yilning sakkizinch oyining sakkizinch kunida soat sakkizdan sakkiz daqiga o'tganda Pekinda XXIX yozgi Olimpiada o'yinlari rasmiy ravishda o'tkaziladi.

Bilasizmi, bolalar Xitoyda ilk bora tashkillashtirilayotgan ushbu Olimpiada uchun bu davlat 2 trillion AQSH dollarini ajratgan.

Shu kungacha Pekinda 37 ta muhtasham sport inshootlari qad rostlamoqda. Ularning ko'pi eng zamonaviy asbob-uskunalar bilan to'liq jihozlandi. Shuningdek, yuqori sifatlari mehmonxonalar soni 800 taga, o'rta sifatlari mehmonxonalar soni esa 13 mingtaga yetkazilishi rejalashtirilgan. Pekin markazidagi Glanannen maydoni xuddi mo'jiza kabi shahar ko'rkiga ko'rk qo'shamoqda.

Shu o'rinda sizlarga yana bir qiziqarli xabarni aytgimiz keldi. Keyingi yilda o'tadigan musobaqalar uchun shu yilning aprel oyidan boshlab chiptalar sotila boshlandi. Umumiy miqdorda 7 million chipta sotilishi mo'ljallangan. Ularni 75 foizi xitoyliklar uchun ajratilgan bo'lsa, shundan 25 foizi esa xorijlik mehmonlarga sotilishi mo'ljallangan.

O'z muxbirimiz

## UZUK MOJAROSI

Bu voqeal may oyining oxirgi kunlarida bo'lgan edi. O'quvchilar so'nggi qo'ng'iyoq bayramiga tayyorgarlik ko'rish uchun sinfdoshlari Sevaranining uyiga borishdi. Uning qo'lidagi uzukni ko'rib, Zulfiyaning havasi keldi:

- Qo'lingdag'i uzugingni taqib ko'ray.
- Mayli, taqib ko'r.

Shu bilan uzuk Zulfiyaning qo'lida qolib ketdi. Yotish oldidan Sevara qo'lida uzuk yo'qligini ko'rib, Zulfiyan ni esladi.

Mayli, ertaga maktabda olarman, deb uyguga ketdi. Ertasi kuni Zulfiyadan uzugini so'radi. U esa: «Men uzukni taqib, so'ng stol ustiga qo'ygan edim», deya ters o'girildi. Shu payt sinfga ustozlari kelib qoldi va janjalning sababini so'radi. Sevara bor gapni ustoziga aytib berdi. Zulfiya esa men uzukni olmaganman, deb o'z so'zida turib oldi. Shunda ustozi bu masalani yaqinda bo'ladigan ota-onalar majlisida hal qilamiz, dedi. Ota-onalar mäjlisiga hali bir hafta vaqt borligi uchun ham Sevara uydagilarga bu haqda hech narsa demadi. Bu orada uzuk muammozi hammaning yodidan ko'tarildi. Fursatdan foydalanmoqchi bo'lgan Zulfiya uzukni sotmoqchi bo'ldi-da, mahalladosh tengqurlariga ko'rsatdi. Ular orasida Sevaranining Gulmira ismli dugonasi ham bor edi. Uzukni ko'rgan Gulmira bu uzuk Sevaranikiga o'xshashini sezdi ya: «Mayli, solishga harakat qilib ko'raman», deya uni oldi. Ertasi kuni maktabda Sevarani izladi. U hali kelmagan ekan. Shunda uzukni uning dugonalariga ko'rsatdi.

- Sen bu uzukni qayerdan olding? – deb so'radi

Shahnoza ismli dugonasi.

Gulmira bo'lgan voqeani so'zlab berdi. Mabodo, Zulfiya kelib qolsa, bu haqda unga hech narsa gapirmasliklari kerakligi haqida sinfdoshlar o'zaro kelishib olishdi.



(Voqeiy hikoya)

Siz nima deysiz?

Zulfia maktabga kelib,

Sevarani sinfda

yo'qligiga ishonch hosil qilgandan keyin Gulmiradan uzukni sotdingmi, deb so'radi. U esa uzukni qizlarga katta tanaffusda ko'rsatmoqchi ekanligini aytdi. Yo'qolgan uzuqi haqida ota-onasiga qanday aytishni o'ylab kelayotgan Sevara sinfga kirganini ham sezmay qoldi. Uzugini topilganidan quvonib ketdi va ustoziga bor gapni so'zlab berdi. Mohira opaning ko'ngli ranjib, Zulfiyaga tanbeh berdi. Biroq, Zulfiya u uzukni menga oyim olib bergenlar, menga pul kerak bo'lganligi uchun ham uni sotmoqchi edim, deb yig'lab o'z so'zida turib oldi. Kim haq-u kim nohaq ekanligini aniqlay olmagan

Mohira opa: «Bu uzuk hozircha menda turadi. Uning kimniki ekanligini ota-onalar majlisi kuni aniqlaymiz», dedi.

Majlis kuni Zulfiyaning onasi Zulayho opa qiziga uzuk olib bermaganini aytib, qizi, ustozni va sinfdoshlarini aldagani uchun kechirim so'radi.

Muyassar QURBONOVA,  
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi  
301-umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchisi



## «SARIQ BELBOG» SOHIBI

Sakkiz yoshli Davlatjon Ashurov Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 208-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinf o'quvchisi, sportning karate turi bilan shug'ullanadi.

O'zbekiston Respublikasi Olimpiya Qo'mitasining Taekvando Assotsiatsiyasi tomonidan o'tkazilgan ko'rik-tanlovda «Sariq belbog» sohibi bo'ldi. Uning maqsadi – kelajakda champion bo'lib, mamlakat bayrog'ini yuksaklarga ko'tarish. Davlatjonga omadlar tilab qolamiz.

Ahtamkul KARIM

**DO, RE, MI, FA,  
SOL, LA, SI**

## SUMBULA OVINI BILASIZMI?

Aziz bolalar!

Biz Sizlarni bobodehqon va chorvadorlar taqvimi bilan tanishтирив боряпмиз. Mazkur taqvimda табият, об-хаво, екин-тиқин-парвариши ва шунга о'xshash ко'плаб qimmatli maslahatlar mavjud. Улар ming yillar davomida dono xalq tomonidan o'rganilgan va sayqal topgan. Siz ham ularni bilib qo'ying. Shu oylardan biri sumbuladir.

Sumbula 28- avgustdan 21-sentabrgacha 30 kun davom etadi.

Bu oyda havo juda mayin keladi. Mevalar g'arq pishadi, paxta qiyg'os ochiladi. Chorva mollari tez semiradi.

Yerning ichki harorati pasayadi, tuproq soviydi. Ba'zi qushlar issiq o'lkalarga uchib ketishadi.

Dehqonlar: «Sumbula yoz bilan qish orasidagi g'animat dam», deb biladilar.

Shuning uchun hosilni tez yig'ishtirib olishga shoshiladilar.

\*\*\*

«Xonandalar yetti pardalohangida kuylasharkan», deb yozgandi yetti raqami haqidagi she'rida Maqsud Shayhzoda. Chindan ham musiqa notalarining nomi yettita:

*Do, re, mi, fa,  
sol, la, si*

\*\*\*

Odamlar Arastudan:

– Sen boshqalardan nimang bilan farq qilasan? – deb so'rashibdi.

– Ular yemoq uchun yashasa, men yashamoq uchun yeyman! – deya javob qilibdi u.

\*\*\*

Pol Brega degan olim bunday degan ekan:

«Mening ishonchim komilki, kasal kishilarning 99 foizi noto'g'ri, notabiy ovqatlanishi tufayli azyiat chekishadi».

Qand va qandli mahsulotlar, kofe, choy, tamaki, spiritli ichimliklar, go'sht, balqini u ana shunday zararli mahsulotlar qatoriga kiritgan.



\*\*\*

Bilimli kishi o'zar,  
Bilimsiz kishi to'zar.

*Yusuf Xos HOJIB*



## Va BOLAKAY hagida qissa

*Qimmatli bolalar! Siz tomda yashaydigan Karlsonni eshitgansiz, albatta. Bu o'yinqaroq bilan uning o'rtog'i Bolakay to'g'risida ko'plab multfilm, telefilmlar yaratilgan. Karlsonning sarguzashtlarini mashhur shved yozuvchisi Astrid Lingren katta kitob qilib yozgan. Kitob dunyodagi ellikka yaqin tilga o'girilgan.*

*Yozuvchi bobongiz Sa'dulla SIYOYEV ana shu kitobning birinchi qismini o'zbekchaga erkin tarjima qildi. Bu maroqli qissani sizlar ham qiziqib o'qiysizlar, deb o'ylaymiz.*

### KARLSON TOMDAN TUSHDI

Stokgolmda bir ko'cha bor. Ko'chamisan – ko'cha. Bu ko'chada oddiygina bir uy ham bor. Ana shu uyda shvedlarning el qatori oddiygina bir oilasi istiqomat qiladi. Bu oilani Svantesonlar deyishadi. Svantesonlar qanaqa

### Bizning tarjima

Motoring parraklari asta-sekin aylana boshlaydi. Parraklar chirillab aylanguncha, Karlson kutib turadi. Motor bor quvvati bilan ishlab ketgach, lip etib havoga ko'tariladi va u yoq-bu yoqqa chayqalib uchib ketadi.

Karlson tomdagi kulbasini jon dilidan yaxshi ko'radi. Kech kirib, qorong'i tushgach, u kichkina ayvonchasiga chiqib o'tiradi. Chilimdonga tamaki bosadi. Xayol surib, osmondagи jimir-jimir yulduzlarga termuladi. Yoz paytlari tom boshida o'tirib yulduzlarni tomosha qilishdan ham zavqli narsa bo'lmasa kerak, nima dedingiz? Tomda yulduzlar ham yaqinlashib qolgandek, tiniqroq ko'rindi. Buni ko'pchilik bilmasa kerak-da, bo'lmasa Karlsonga o'xshab tomda hujra solib olisharmidi? Harqalay, bizning Karlson tom boshida hayot kechirayotganidan xursand.

### Davomi bor.

## G'ALATI APPARAT

Davomi. Boshi  
o'tgan sonda.

- Hali yozishni yaxshi bilmayman-ku!
- Akalaring ham yozmadim, deyapti. Qiziq, unda kim yozdiykin? – dedi Azamat asabiy yelka qisib.
- Balki sen kim yozganini ko'rgandirsan?
  - Yo'q, ko'rmadim.
  - Ko'rgan bo'lsang, qo'rqlay aytaver.
  - Ko'rmadim, deyapman-ku! – Hadeb so'rayverasizmi?! – dedi Anora achchiqlanib.

Azamat qiyin-qistov bilan bir ish chiqara olishiga ko'zi yetmay, o'ylanib qoldi. Endi boshqacharoq yo'l tutishga urindi.

– Kim yozgan bo'lsa, o'z ixtiyorli bilan aybini bo'yniga olsin, urishmayman. Otamga ham, onamga ham aytmayman. Oldin Alisher, keyin Asil akasiga ishonqiramay, yovqarash qilib qaradi.

– Xo'sh, aytasanlarmi? – Azamat shapaloq tortib yuborishdan zo'rg'a o'zini tiyib turardi.

Aka-uka endi «plastinka»ni biroz boshqacharoq «aylantirib» ko'rishdi:

– Alish yozgan bo'lsa kerak, – dedi Alisher.

– Bir-biringga tuhmat qilma, har kim o'zi uchun javob bersin! – dedi Azamat yana tutoqib. U xuddi kitobdan yodlab olingandek o'sha bir xil javobni eshitib, battar xunobi oshdi, haqiqiy aybdorni hozir, bir qarashda bilib oladigandek ukalarining ko'ziga qattiq tikildi. Asil dosh berolmay ko'zini olib qochdi. Alisher esa negadir iljayib chetga o'girildi.

– Alish, nega tirjayasan? Qilg'ilikni qilib qo'yib, yana tirjayganing ortiqcha! – Azamat xuddi kattalardek dashnom berdi.

Alisher birdan qovog'ini uysi-ju, yana yer suzib turaverdi. «Ha, ayyor!» deb qo'ydi o'zicha Azamat. Nogoh mana shu holati kattalardek qo'lini beliga tirab, otasidek ukalarini tergayotgani, boyaqishlarning itoat bilan bosh egib turishi

o'zicha xush yoqib ketdi. Ota-onasi kelguncha haqiqiy aybdorni topib qo'ysa, juda katta ish qilgan bo'ladi. Ammo shu tobda aybdorni topish oson emasligini yana bir karra ko'nglidan o'tkazdi. Kinolarda o'zi ko'p ko'rgan tajribali tergovchilardek arqonni uzunroq tashlashga ahd qildi.

– Xo'sh, endi nima qildik? – dedi Azamat salmoq bilan. – Ayblarni aniqlash qiyin bo'lyapti. Unda hozircha aysiz, ya'ni shubhadan holi bo'lganlarni aniqlab olsak. Shunda haqiqiy aybdorni topish osonlashadi. Bunga nima deysizlar?

Ukalari bunaqa gapga tushunmaganday angrayib turaverishdi.

– Xo'sh, buni otam bilan onam yozmaganligi aniq, shundaymi? – Azamat devordagi yozuvga ishora qildi, ukalari bosh irg'ib tasdiqlagach, gapida davom etdi. – Xuddi shunday! Juda yaxshi! Anora o'zi xohlagan taqdirda ham yozolmaydi, shundaymi?

– Anora o'z ismini yoza oladi, – dedi Asil muhim narsa esiga tushgandek jonlanib.

– Xo'sh, bu bilan Anora yozgan demoqchimisan? – dedi Azamat Asilning ko'ziga qattiq tikilib. – Eh, kalla! Axir devorga bunchalik o'yib yozish uchun kuch kerak-ku! Demak, Anora ham yozmagan, shundaymi?

Ukalar noiloj yana bosh irg'ashdi.

– Demak, unda ikkovingdan boshqa hech kim yozmagan buni?! To'g'rimi? To'g'ri! Devorga ikkoving emas, bittang yozgansan. To'g'rimi? To'g'ri! Ana endi o'sha bittang kim? Hozir shuni aniqlashimiz kerak.

### Davomi bor.



### (Hikoya)



### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

### (Hikoya)

# BOLALARGA ATALGAN QO'SHIQLAR BORMI?

Bolajonlar, orangizda «Bulbulcha» bolalar ashula va raqs dastasini bilmaydiganlar topilmasa kerak-a? Biz ham ana shu dasta ijrosidagi qo'shiqlarni tinglab, kuylab ulg'ayganmiz.

Dasta haqida gap ketganda, ko'z oldimizda uning fidoyi rahbari – O'zbekiston Xalq artisti, xor dirijori va murabbiyi, bastakor Shermat aka Yormatovning siyomasi gavdalaniadi.

Farg'ona viloyatidagi Log'om qishlog'ida tug'ilgan Shermat aka bolaligidanoq sho'x, o'yinقارоq tengdoshlari orasida vazminligi bilan ajralib turardi. Bunga balki murg'ak qalbidagi musiqaga, san'atga bo'lgan oshnolik sabab bo'lgandir. Maktabdagi havaskorlar to'garagida olgan saboqlari havasni maqsadga, ishtiyooqqa aylantirdi.

Konservatoriya ham kirish imtihonlarsiz qabul qilindi. Ustozi Pak Endindan puxta saboq olib, yosh mutaxassis yo'llanmasi bilan O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi xor jamoasida dirijyor bo'lib ish boshladi. O'ttiz yildan ortiq vaqt davomida kompozitorlar va shoirlar bilan hamkorlikda ko'plab qo'shiqlar, suyita, kantata, jo'rsiz qo'shiqlar yaratdi, o'zbek xalq qo'shiqlarini xor uchun qayta ishladi.

8-10 nafar bolalardan tashkil topgan uning rahbarligidagi «Bulbulcha»ga hozirda 500 dan ziyod o'g'il-qiz a'zo. Uning tarkibida «Xalq cholg'u dastasi», «Kichik yosh» va «Katta yosh» raqs dastalari faoliyat ko'rsatmoqda. «Bulbulcha» o'zining 40 yillik faoliyati davomida dunyoning Kongo, Finlyandiya, Yugoslaviya, Fransiya, Turkiya kabi ko'plab mamlakatlarda bo'lib



Mustaqillik bayramlarini bu dasta a'zolari ishtirokidagi qo'shiq va raqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yaqinda yosh muxbirimiz Umida SHARIPOVA Shermat aka bilan hamsuhbat bo'ldi:

– Avvallari bastakor va shoirlarimiz bolalar uchun ko'plab qo'shiqlar yaratishardi, – dedi kuyunchaklik bilan Shermat aka. – Afsuski, keyingi yillarda bolalar qo'shiqchiliga e'tibor ancha pasaygan. Bolalar qo'shiqlari targ'iboti qoniqarsiz ahvolda. Ular musiqiy tarbiyasiga oid biror ko'rsatuv yoki eshittirish bo'lsa, qaniydi... Bolalar noiloj jajigina jussasi, ovozchasi bilan kattalarning yengil-yelpi qo'shiqlarini aytib yurishibdi...

Darhaqiqat, hozir bolakaylarga, qo'shiq aytib ber, desak, «Davraga tushgan go'zal» yoki «Arazingiz ochilmaydi»dan olishadi. To'g'ri, bolalarning biyron tillarida qo'shiq juda maroqli eshitiladi. Lekin ular kuylayotgan qo'shiqlarning ham qaysidir ma'noda tarbiyaviy ahamiyati bo'lishi kerak-ku, axir! Yoshlariga mos qo'shiq aytishsa bo'lmasmokin-a, deb o'ylanib yurardim. Shermat akaning asosli fikrlaridan savolimga javob topgandek bo'ldim.

Feruza JALILOVA

o'tgan tanlov va festivallarning ishtirotchisi bo'ldi. Turkiyada bo'lib o'tgan «Jujuqlar» bayramida «Gran-pri» sovrini hamda Yugoslaviyada bo'lib o'tgan «Oltin bulbulcha» tanlovida birinchi o'rinni sohibi bo'ldi.

Dilfuza Rahimova, Ilhom Farmonov, Sevara Nazarxon, Farhod Saidov, Anvar Sanayev, Isroil Saidumarov kabi sevimli estrada xonandalarimiz aynan «Bulbulcha»da kamol topishgan. Yurtimizda keng tantana qilinadigan Navro'z va

Mustaqillik bayramlarini bu dasta a'zolari ishtirokidagi qo'shiq va raqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Yaqinda yosh muxbirimiz Umida SHARIPOVA Shermat aka bilan hamsuhbat bo'ldi:

– Avvallari bastakor va shoirlarimiz bolalar uchun ko'plab qo'shiqlar yaratishardi, – dedi kuyunchaklik bilan Shermat aka. – Afsuski, keyingi yillarda bolalar qo'shiqchiliga e'tibor ancha pasaygan. Bolalar qo'shiqlari targ'iboti qoniqarsiz ahvolda. Ular musiqiy tarbiyasiga oid biror ko'rsatuv yoki eshittirish bo'lsa, qaniydi... Bolalar noiloj jajigina jussasi, ovozchasi bilan kattalarning yengil-yelpi qo'shiqlarini aytib yurishibdi...

Darhaqiqat, hozir bolakaylarga, qo'shiq aytib ber, desak, «Davraga tushgan go'zal» yoki «Arazingiz ochilmaydi»dan olishadi. To'g'ri, bolalarning biyron tillarida qo'shiq juda maroqli eshitiladi. Lekin ular kuylayotgan qo'shiqlarning ham qaysidir ma'noda tarbiyaviy ahamiyati bo'lishi kerak-ku, axir! Yoshlariga mos qo'shiq aytishsa bo'lmasmokin-a, deb o'ylanib yurardim. Shermat akaning asosli fikrlaridan savolimga javob topgandek bo'ldim.

Feruza JALILOVA

# KUY VA QO'SHIQ TARBIYALAYDI

Kuy va qo'shiq ilohiy kuchga ega bo'lgan tuyg'u.

Uni tinglagan bola butun vujudi bilan o h a n g l a r o g'ushiga singib ketadi, ko'ngli ravshan tortib, har sohada faol b o ' l i s h g a intiladi.

Buni yaxshi bilgan Jizzax v i l o y a t i , G ' a l l a o r o l tumanidagi 22-

umumiy o'rtatash maktabining oliy toifali musiqa muallimi Abdusalil Donaboyev «Taron» nomli badiiy havaskorlik dastasi tashkil qildi. Dastaning «G'ijjat navolari» guruhida musiqa savodini oshirish hamda mumtoz qo'shiqlarning yaratilish tarixi o'rganilsa, «Kichik bastakor» guruhida bolalar mustaqil kuy bastalaydilar.

Yaqinda viloyatda madaniyat va sport ishlari boshqarmasi tomonidan o'tkazilgan viloyat yosh ijodkorlar ko'rik-tanlovida o'quvchilardan Husniddin Hasanov qashqar rubobida mahorat bilan kuy chilib, sovrinli o'rinni egalladi. Ushbu ko'rik-tanlovida uning sinfdoshi Muqaddas Keldiyorova xalq raqsi ijrochiligi bo'yicha, Akbar Tojiyev qo'g'irchoq teatri aktyorligi bo'yicha faxrli o'rnlarni egallab, mukofot sohibiga aylanishdi.

– Kuy va qo'shiq tarbiya quroli vositasi, – deydi maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosi, «Shuhrat» medali sohibi Savriddin Safarov. – Uni tinglagan bola ma'naviy ozuqa olib ulg'ayadi va kamol topadi.

Abdulla SAIDOV.

o'zini boshqachaman, deb o'ylaydi-ya... Bu gapni eshitib, hammasiga tushunganman. Qiz bola hatto tengdoshlari orasida ham faqat hayosi, ibosi, odobi bilangina hurmat topadi. Sizni chinakkamiga hurmat qilishlarini istaysizmi yoki dugonalaringiz bilan kiyinish borasida musobaqalashishnimi? Bu yog'i o'zingizga fiavola. Lekin unutmang, otanonangizni, millatimizni uyaltirishga hecham haqq-qingiz yo'q. Aksincha, ular ga munosib bo'lishga harakat qilish sizning burchingizdir.

Sayyora JO'RAYERVA

TAHRIRIYATDAN:  
Yoshlik – beboshlik, deyishadi. Goho bilib-bilmay xato qilish ayb-emas, uni tuzatmaslik ayb. Izlanuvchan yosh jurnalist opangiz xatolaringizni tuzatib, iboli, hayoli, Vatanga, elga munosib farzand bo'lishlaringizni istab, shu fikrlarini qog'ozga tushiribdi. Siz bunga qanday qaraysiz? Ota-onalar, ustozlar, sizlar-chi?



Yosh san'atkorlardan biri Ulug'bek Rahmatullayevni yaxshi taniysiz-a? Uning so'nggi qo'shig'i ni eshitdingizmi?

«Mini yubka kiyar qizlar, Sendan ruxsat so'ramay. Yelka ochiq kiyinlarlar, Aslo ro'mol o'ramay...», deya boshlanuvchi bu qo'shiq sizga qanchalik ta'sir qildi? Agar gap

• Qo'shni ayol zorlandi

– Ayrim qizlarimiz biram «tikka-yey», deya kuyunib gapiradi qo'shni ayol. – Ishdan qaytayotganimda sal egilib yo yuziga xiyol tabassum yogurtirib salom berganini ko'rmayman-a. Chala qilib arang salom berib o'tib ketishadi-ya...

O'zimcha o'ylayman: hozirgi ota-onalarga ham osonmas. Qarang, qizlar haqida qancha gap-so'z. Lekin ayb

egasini topib yetgan bo'lsa, qizlarni biroz uyaltirib qo'yganligi tabiiy. Chunki shu paytgacha o'zbek qizlari sha'niga shoir-u san'atkorlarimiz tomonidan faqat iliq gaplar aytildi, ularning hayo-ibosi haqida qo'shiqlar kuylangan. Bizningcha, qo'shiqlardagi ta'rif bejizga o'zgarmagan. Ba'zan kiyim bozoriga borib siporoq kiyim topa olmaganingizda o'ylab qolasiz, nahot bozor ham «bu moda» deya o'zini oqlayotgan qizlarga moslashayotgan bo'lsa??

kimda? O'sha bir qarich yubkasini kiyib chiqib ketayotganida indamagan ayrim ota-onalarimizning o'zlarida emasmi?


Zuhra qizning deganlari

– Voy, agar men unday kiyinsam, onam ko'chaga chiqarmay qo'yaqlardilar, – deya gap boshlagan suhbatdoshimiz Zuhra Muhsimovaning oilasida qiz bolaning kiyinishi alohida e'tibor qaratilishi



Yigitlarning gap-so'zi

Maktabda o'qib yurgan kezlarim sinfdosh yigitlarning bir suhbatini eshitib qolgandim. Ulardan biri nima deydi, deng?! – Dilnozni kiyinib olganini qaralaring,



# ENG,

Osiyo yer yuzidagi eng katta qit'a hisoblanadi. Uning maydoni 45036492 kv.kilometdrdir. Undan keyin Afrika qit'asi turadi. Bu qit'aning umumiy maydoni 30.343578 kv.km. ga teng.

Qit'alar orasida eng kichkinasi Avstraliya bo'lib, uning maydoni 7614500 kv.km.ga teng.

Tinch okeani dunyoda eng katta okean bo'lib, uning maydoni yer sathining uchdan bir qismini tashkil etadi. Uning maydoni 166 241 700 kv.km.ga teng bo'lib, o'rtacha chuqurligi 3940 metrdir.

Gavay orollaridagi Mauna-Kea (Oq tog') dunyodagi eng baland tog'dir. Uning Tinch okean tubidagi asosidan boshlab to cho'qqisiga qadar masofa 10 ming 250 metrni tashkil etadi. Uning suv sathidan boshlanadigan qismi 4205 metrni tashkil etadi.

# ENG,

Ximolay tizmalarining sharqi qismidagi Everest tog'ining balandligi 8848 metr bo'lib, u dunyodagi eng baland nuqta hisoblanadi. Everest tog'i 1830-1849-yillarda Hindistonning general-gubernatori bo'lgan buyuk britaniyalik general ser Jorj Everest sharafiga nomlangan.

Nil va Amazonka dunyodagi eng uzun daryolaridir.

Nilning uzunligi 6695 kilometr bo'lib, Asvon to'g'oni va Nosir suv ombori qurilgandan so'ng uning bo'yи biroz qisqargan. Amazonkaning uzunligi esa 6750 kilometrga teng bo'lib, bir n e c h t a Kristin Salvador teng bo'lib, bir h i s o b l a n a d i . Avstraliyalik bu yosh o'zanlardan qizchaning ovozi shunday t a s h k i l kuchlik, hatto samolyot bilan topgan.

Yaqinda mutaxassislar uning ovozi balandligini sinab ko'rib, hayratga tushishdi. Kristinaning ovoz kuchi 110, 9 ditsebalga teng ekan.

# ENG...



BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Muassislar:  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'Imagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:  
Fazliddin SHOYODGOROV  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston  
matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:  
Turobjon JO'RAYEV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV  
(«O'zbekiston» NMU Bosh  
muharrir o'rinosari),  
Dilmurod RAHMILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Sobirjon SHARIPOV,  
Ergashvoy SARIQOV.


Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navojo ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 144-27-25 144-63-08  
Tel/faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:  
Nodira MIRZAYEVA,  
Feruz MATYOQUBOV

Noshir:  
«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
Gazeta «O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
kompyuter bo'limida terib  
sahifalandi va chop etildi.  
Gazeta haftanining dushanba  
kuni chiqadi. Hajmi A-3,  
2 bosma taboq.  
Adadi - 19010  
Buyurtma N: J 4043

# Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

## AYLANMA KROSSWORD



KALIT SO'Z 1 2 6 2 3 5 7 4

## «SO'ZLARDAN SO'Z» TOPQIRLIK O'YINI

B	A	S	+	O	T	=
Q	I	L	+	O	T	=
N	I	Q	+	O	T	=
R	O	M	+	O	T	=
B	I	R	+	O	T	=
N	I	L	+	O	T	=
T	U	SH	+	O	T	=
T	I	M	+	O	T	=
D	O	V	+	O	T	=
K	A	P	+	O	T	=

Shaklning har bir qatorlaridagi berilgan so'zlardagi harflar asosida yangi besh harfli so'z hosil qilib, bo'sh kataklarga qatorlar bo'yicha yozish bilan topqirligingizni sinab ko'ring.

Foziljon ORIPOV tuzdi